

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDA SHAXSNI JINS JIHATIDAN IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING BERILISHI

Qobilova Mahbuba Mo‘minjonovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida doktoranti

qmahbuba95@mail.com

***ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida berilgan shaxsni jins jihatda ifodalovchi leksik birliklarning farqlovchi va umumlashtiruvchi xususiyatlari haqida fikr yuritiladi*

***KALIT SO‘Z:** Gender, atash ma‘no, erkak jinsiga mansublik, ayol jinsiga mansublik, leksikografiya, feministik tilshunoslik*

THE PROVISION OF LEXICAL UNITS EXPRESSING GENDER IN THE EXPLANATORY DICTIONARIES OF THE UZBEK LANGUAGE

***ABSTRACT:** This article discusses the distinguishing and generalizing features of the lexical units representing the given person in terms of gender in the explanatory dictionaries of the Uzbek language*

***KEY WORDS:** Gender, meaning, belonging to the male gender, belonging to the female gender, lexicography, feminist linguistics*

KIRISH

Shaxsning sotsial belgilarini ifodalovchi leksik birliklar orasida gender, ya‘ni jins nuqtai nazaridan tavsiflovchi so‘zlar o‘zbek tilida alohoda agamiyat kasb etadi. Bilamizki, gender tushunchasi bir vaqtning o‘zida shaxsning ijtimoiy-madaniy

shartlashgan erkaklik va ayollik xususiyatlarini o'lashtirish jarayoni hamda natijasini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin etiladi.

Til jamiyat a'zolari o'rtasida eng muhim aloqa-aralashuv vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Til boshqa ijtimoiy hodisalar bilan uzviy aloqadadir. O'tgan asr davomida gender tushunchasi bilan bog'liq tadqiqotlar faollashdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu davrda til va sotsial munosabalar doirasida til hodisalarini tadqiq etish ta'sirida tilshunoslikda yangi yo'nalishlar shakllandi.

1. Sotsiolingvistik tadqiqotlar
2. Feministik tilshunoslik
3. Ikki jinsni o'rganuvchi sof gender tadqiqotlari
4. Maskulinlik tadqiqotlari
5. Jinsni psixolingvistik nuqtai nazardan o'rganish
6. Krossmadaniy va lingvomadaniy tadqiqotlar¹.

Til hodisalarini ijtimoiy omillar bilan bo'lgan munosabati sosida o'rganishning asosiy maqsadi borliq hodisa va voqeligini tasvirlovchi, tavsiflovchi vositalarning tilda mavjudligi, xususan, shaxsni jins jihatidan ifodalovchi til birligi ma'nosining hosil bo'lishida lisoniy va nolisoniy omillarning o'rni, ta'sirini o'rganishdir.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

O'zbek tilining izohli lug'atida *o'g'il, qiz, yigit, o'g'lon, qizaloq, qizcha, er, erkak, ayol, xotin, juvon, chol, kampir, ojiza, zaifa, bekach, navjuvon, o'spirin* va boshqalar kabi so'zlar lisoniy ma'nosi shaxsning sotsial belgisidan biri bo'lgan jinsi bilan bog'liq holda shakllangan birliklar bo'lib, ularning barchasi uchun birlashtiruvchi, umumiy omil shaxsni jinsiga ko'ra ifodalash hisoblanadi. Shu asosda, ularning har biri alohida lisoniy ma'no va vazifalarga egaligi bilan o'zaro farqlanadi. Bular uchun integral sema "jinsga xoslik" belgisi bo'lsa, farqlovchi semalar sifatida "erkak jinsiga mansublik" yoki "ayol jinsiga mansublik" ma'nolarni belgilash

¹ Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. – М.: Институт социологии РАН, 1999. – 188 с.

mumkin. Aynan shu farqlovchi semalar asosida jinsga ko‘ra shaxsni ifodalovchi lug‘aviy birliklar dastlabki bosqichda ikki guruhga ajraladi:

- 1) Erkak jinsiga mansublikni ifodalovchi leksik birliklar;
- 2) Ayol jinsiga mansublikni ifodalovchi leksik birliklar.

Birinchi guruhda er jinsiga mansub bo‘lgan semaga ega so‘zlar *o‘g‘il, yigit, er, erkak, chol, o‘spirin* kabi so‘zlar mansublik kasb etsa, ikkinchi guruh ayol jinsiga mansub semasiga ega bo‘lgan *qiz, qizaloq, ayol, xotin, kampir, bekach, juvon* kabi birliklar bilan to‘ldiriladi.

Ushbu leksik birliklarning barchasida shaxsni jins jihatidan ifodalash ma‘nosi yetakchi mavqeni egallab turibdi. Bundan tashqari, shaxsni ham jins, ham qarindoshlik, ham kasb-kor, ham yosh jihatdan tavsiflovchi leksik birliklarni ham shaxsni jinsiga ko‘ra tavsiflovchi leksik birliklar sifatida qarash lozim deb hisoblaymiz. Chunki, shaxsning ijtimoiy holat va munosabatlari turli omillarga bog‘liq, bu holat shaxsning sotsial belgilarini ifodalovchi leksik birliklar lisoniy ma‘nosiga ta‘sir etmay qolmaydi. Jumladan, *kampir* so‘zining atash ma‘nosida ayol jinsiga mansublik hamda shaxsning keksalik holati semalari birgalikda tarkib topgan. Shuningdek, *aktrisa, balerina, doya, hamshira* kabi so‘zlarning ma‘nosida esa kasbi, shug‘ullanadigan faoliyati bilan birga ayol jinsiga mansublik belgisi ham mavjud. Qarindoshlik, jins, yosh belgilarini birgalikda ifodalovchi so‘zlar sifatida *tog‘a, aka, kuyov, singil, moma, buva, kelin, pochcha, amma, xola, bobo, opa, qaynota, qaynona* kabi leksik birliklarni qayd qilish mumkin.

Qayd qilingan shaxsni jins jihatidan ifodalovchi leksik birliklarni “nomlashning sotsial xoslanganligi” nuqtai nazaridan baholab, ularning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”² dagi leksikografik izohlariga diqqat qaratsak, shaxsni jinsga ko‘ra tavsiflovchi leksik birliklarning lisoniy xususiyatlari izohli lug‘atlarda atroflicha talqin qilingan. “Tilda mavjud faktik manbalardan anglashiladiki, otasi, onasi, bo‘tam, xonim, chirog‘im ko‘rinishli so‘zlar murojaat shaklida qo‘llanadi va sotsial

² Shaxsni jinsga ko‘ra tavsiflovchi so‘zlarning leksikografik tasnifi tahlili: O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jild. 1-5-jildlar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.

va lingvomadaniy xususiyatini namoyon qiladi”³. Xuddi shunday *o‘g‘il, qiz, yigit, xotin, kampir, kelin, kuyov yigit* kabi shaxsni jinsga ko‘ra ifodalovchi so‘zlarning ham murojaat shakli vazifasidagi faolligini ta’kidlash mumkin. S.Mo‘minovning tadqiqotida aytilishicha, o‘zbek oilalarida er va xotinning o‘zaro murojaatida o‘ndan ortiq murojaat shakli ishlatiladi⁴, bularga shaxsning jins belgisi bilan bog‘liq ifodalar katta o‘rin egallaydi..

XULOSA

Xulosa qiladigan bo‘lsak, shaxsni jins jihatdan tavsiflovchi so‘zlarning o‘zbek tili leksikasida o‘ziga xos ma’no va xususiyatlariga ega bo‘lib, ularning lisoniy ma’no tarkibini tekshirish lisoniy-ijtimoiy tabiatini ochishga, ularning leksikografik tasniflarini mukammallashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Hasanova D. O‘zbek tilida shaxs sotsial belgilarini ifodalash omillari, vositalari va usullari: Filol.fan.dokt. ... diss. – Qo‘qon, 2022
2. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari (monografiya). – Farg‘ona
3. Raupova L. Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol.fan.dokt. ...diss. – Toshkent, 2012
4. Shaxsni jinsga ko‘ra tavsiflovchi so‘zlarning leksikografik tasnifi tahlili: O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jild. 1-5-jildlar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008
5. Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. – М.: Институт социологии РАН, 1999

³ Raupova L. Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol.fan.dokt. ...diss. – Toshkent, 2012. – 154-b.

⁴ Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari (monografiya). – Farg‘ona. 2021. – 180-182-b.